



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
A. S. Umarov	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе	92
Эргашев Серожиддин Султонмуродович, Маматов Исломбек Ильесович	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi	102
Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	106
Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv	111
To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari	122
Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari	126
Haytbayeva S. R.	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
Kadirova Nigora Saxibjanovna	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
Samiyeva Zuleyxa Uktamovna	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari	139
Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish	145
Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
Toshpulatova Aziza Toyirovna	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	155
Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari	159
Begmatov Raximkul Olimovich	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari	164
Narziyeva Mastura Sunnatovna	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	168
Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	173
Qo'chqorov Nodir Bozorovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar	178
A'zamqulova Zilola Sunnat qizi	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar	187
Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari	190
Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich	

O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili.....	194
<i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	
Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati.....	198
<i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	
Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili	202
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means	205
<i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish.....	208
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	
Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari.....	212
<i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati	216
<i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari.....	221
<i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	
Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication	224
<i>Fayziyeva Parvina</i>	
Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi	227
<i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	
Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi.....	235
<i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	
Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari.....	238
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Spheres of Language Use.....	243
<i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi.....	246
<i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari.....	251
<i>N. Jurayev</i>	
Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil	255
<i>Nargiza Ergasheva</i>	
Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli	259
<i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	
Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar)	264
<i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi.....	269
<i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	
Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi.....	273
<i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	
Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori.....	278
<i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati.....	282
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish	285
<i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	

IJTIMOYIY HAMKORLIK – BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH POYDEVORI

Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna

MTTDMQTMO instituti dotsenti, p. f. f. d.(PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning jamiyatga ijtimoiylashuvi masalalari, uning ahamiyati va samarali tashkil etish yo'llari yoritilgan. Ijtimoiylashuv jarayonida bolalarning ijtimoiy tajriba orttirishi, jamiyatga moslashuvi hamda shaxs sifatida shakllanishi muhim omil sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ota-onalar va mahalliy hamjamiyatlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni tashkil etish jarayoni keng tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiylashuv, maktabgacha ta'lim, bola rivojlanishi, ijtimoiy muhit, ijtimoiy hamkorlik, pedagogika, ijtimoiy tajriba, loyiha metodi, ekskursiya, tarbiya.

Abstract: This article discusses the issues of preschool children's socialization, its importance, and effective ways of organizing it. In the process of socialization, particular attention is paid to children's acquisition of social experience, their adaptation to society, and the formation of their personality. The article also provides a comprehensive analysis of the organization of social partnership among preschool educational institutions, parents, and local communities.

Key words: socialization, preschool education, child development, social environment, social partnership, pedagogy, social experience, project method, excursion, upbringing.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы социализации детей дошкольного возраста, её значение и пути эффективной организации. В процессе социализации особое внимание уделяется накоплению детьми социального опыта, их адаптации к обществу и формированию личности. Также подробно проанализирован процесс организации социального партнёрства дошкольных образовательных учреждений, родителей и местных сообществ.

Ключевые слова: социализация, дошкольное образование, развитие ребёнка, социальная среда, социальное партнёрство, педагогика, социальный опыт, проектный метод, экскурсия, воспитание.

KIRISH

Zamonaviy psixologiya va pedagogika fanida "ijtimoiylashuv" tushunchasi ijtimoiy-madaniy tajribani o'zlashtirish va qayta tiklash jarayonida insonning rivojlanishi hamda o'zini o'zi rivojlantirish jarayoni sifatida talqin etiladi. Albatta, yosh avlodning jamiyatga muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlash juda muhimdir. Zamonaviy dunyoda yosh avlodni ijtimoiy rivojlantirish muammosi dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Ota-onalar va pedagoglar jamiyatga moslashib kelayotgan bolaning o'ziga ishongan, baxtli, aqlli, mehribon va muvaffaqiyatli bo'lishi uchun nima qilish kerakligi haqida maktabgacha yoshdanoq qayg'urishlari kerak. Insonning shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, kelgusida bolaning kattalar olamiga qanday moslashishi, hayotda o'z o'rnini topa olishi hamda o'z salohiyatini ro'yobga chiqara olishiga ko'p narsa bog'liq.

Bir qarashda maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy dunyosi katta emasdek tuyuladi. Bular uning oilasi, kattalar va bog'chadagi tengdoshlari hisoblanadi. Biroq bola tashqariga chiqqanda, atrofidagi turli xil odamlar bilan qarindoshlik, do'stlik, kasbiy va mehnat faoliyati hamda mushtarak qiziqishlar yuzasidan o'zaro munosabatlarga kirishadi.

Shuning uchun maktabgacha yoshdanoq bolalarda insoniy munosabatlarning xilma-xilligi to'g'risida tasavvurni shakllantirish, ularga jamiyatda o'rnatilgan axloq qoidalari va me'yorlari haqida so'zlab berish, hayotiy vaziyatlarda sodir bo'layotgan aniq voqealarga adekvat munosabat bildirishga yordam beradigan xulq-atvor modellari bilan tanishtirish zarur. Boshqacha aytganda, ijtimoiylashuv jarayonini boshqarib borish zarur.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar yosh avlodni ijtimoiylashtirish institutlaridan biri bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga muayyan ijtimoiy buyurtmani qo'yimoqda. Shu sababli bolalarning hayotiy muhim bilim va ko'nikmalarni egallashi, bolalik qiziqishlari hamda shaxsning tabiiy ijodiy salohiyatini ochib berish va rivojlantirish, bolada ijtimoiy tajribani shakllantirish, turli ijtimoiy rollarni bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratish kabi muammolarni hal etish ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari bola rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga amal qilgan holda, o'sib kelayotgan avlodni ijtimoiylashtirishga alohida e'tibor qaratayotgan zamonaviy jamiyat sharoitida faoliyat yuritmoqdalar. Maktabgacha ta'limning maqsadli yo'nalishlaridan biri bolalarning o'zlari yashayotgan ijtimoiy olam haqida yetarli darajada bilimga ega bo'lishidir. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari o'z oldilariga qo'yadigan dolzarb vazifalardan biri bolalarning hayotiy muhim bilim va ko'nikmalarni egallashi, bolalarning qiziqishlarini hamda shaxsning tabiiy ijodiy salohiyatini ochib berish va rivojlantirish, bolada ijtimoiy tajribani shakllantirish, turli ijtimoiy rollarni egallashi uchun shart-sharoitlar yaratish masalasi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti ijtimoiy hamkorlik asosida faoliyat yuritmasdan, jamiyat bilan keng hamkorlik qilmasdan turib, o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshira olmaydi va rivojlana olmaydi.

P. N. Tretyakovning fikricha, ijtimoiy hamkorlik – bu ijtimoiy subyektlar uchun maqbul bo'lgan munosabatlar varianti, ularning ehtiyojlari, manfaatlari va qadriyat mo'ljallari konsensusi o'lchovidir. Ta'limni isloh qilishning zamonaviy sharoitida MTT ochiq va rivojlanayotgan tizim hisoblanadi. Uning hayotiy faoliyatining asosiy natijasi jamiyat bilan muvaffaqiyatli o'zaro ta'sir bo'lishi kerak. Shu tamoyilni o'zlashtirish va qo'llash asosida maktabgacha ta'lim tashkiloti bola shaxsini ijtimoiylashtirishning kuchli vositasiga aylanadi.

Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy farovonligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bolalarning rivojlanish holatidir, chunki bolalar mamlakatning iqtisodiy va ma'naviy rivojlanish darajasini, fan va madaniyat holatini belgilaydigan eng muhim zaxirani tashkil etadi. Jamiyatda kechayotgan o'zgarishlar yildan-yilga maktabgacha ta'limga tobora yuqori talablar qo'yimoqda: pedagoglar berishi kerak bo'lgan bilimlar hajmi tobora ortib bormoqda. Bunday vaziyatda nafaqat berilayotgan bilimlarning sifati, balki axborotni uzatish usullari ham muhimdir. Tenglikka asoslangan ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yishda qo'llanilayotgan uslublar va imkoniyatlar juda ko'p bo'lib, ulardan biri boshqa tashkilotlar hamda ijtimoiy hamkorlar bilan o'zaro ta'sirli, qayta aloqaga asoslangan hamkorlikni yo'lga qo'yishdir.

Maktabgacha bolalik davri bolaning insoniy hamjamiyatga kirishishi, turli ijtimoiy vaziyatlarga moslashishi hamda ijtimoiy munosabatlar tajribasini egallashining muhim bosqichi hisoblanadi. Atrofdagi odamlar bilan hamkorlikda bola ijtimoiy maqbul xulq-atvor shakllari bilan tanishadi va ularni ongli ravishda qo'llab-quvvatlashni o'rganadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolaga atrof-olamga, jamiyatga kirishish va moslashishga qanday yordam berish mumkin? Bolalarni o'zlari yashaydigan hududning eng yaqin atrofidagi obyektlari bilan tanishtirish, bolaga o'zining bog'chasi va o'qiydigan maktabi qayerda joylashganligini erkin mo'ljal olishni o'rgatish muhim deb hisoblaymiz. Eng muhimi, bir vaqtning o'zida kutubxonalar, muzeylar va ko'rgazmalarga tashrif buyurish orqali bolada o'z kichik vataniga muhabbat hamda tabiatga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash, madaniyatga bo'lgan qadriyatli munosabatni shakllantirishdir.

Buning uchun bolalarni ijtimoiy muhit obyektlari bilan tanishtirish bo'yicha butun bir tadbirlar tizimini, hamkor tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikning istiqbolli rejalarini ishlab chiqish lozim. Yuqorida aytib o'tilgan "rivojlanish" jarayoni asta-sekin, bolalarning yoshi va tayyorgarligiga qarab amalga oshiriladi. Shaharning ijtimoiy sohasi bilan tanishishni shahar ijtimoiy infratuzilmasining bir qismi bo'lgan MTTning o'zidan boshlash lozim. Bolalar bog'chasi miniatyura ko'rinishidagi ijtimoiy olam bo'lib, unda ta'lim, madaniyat, xizmat ko'rsatish, umumiy ovqatlanish, tibbiyot va boshqa ijtimoiy sohalar aks ettirilgan. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bog'cha – bu katta, noma'lum dunyo bo'lib, unda ko'plab notanish, ammo qiziqarli odamlar, buyumlar va narsalar mavjud. Tarbiyachilar kichikintoylarni bolalar bog'chasi bilan tanishtirar ekanlar, bu yerdagi predmetlar haqida batafsil gapirib beradilar, ularning vazifasini tushuntiradilar, nomlarini aytadilar hamda tevarak-atrofnii idrok etish va unga o'z munosabatlarini bildirishga o'rgatadilar. Bunday ekskursiya bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga tezroq va osonroq moslashishiga yordam beradi. Tanish xonalar, buyumlar va odamlar bolani cho'chitmaydi, unga yaqin va tushunarli bo'lib qoladi.

Tarbiyachilar o'рта guruhdan boshlab bolalarni bog'chadan tashqaridagi obyektlar bilan tanishtiradilar. Bolalar bog'chasini o'rab turgan jamiyat ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalari, madaniyat markazlari hamda xizmat ko'rsatish sohalari kabi tizimlardan iborat. Yaqin atrofdagi ko'chalarga maqsadli sayrlar o'tkazish mobaynida bolalar ko'chada o'zini tutish qoidalarini o'zlashtiradilar, transport va yo'l harakati qoidalari haqidagi bilimlarini shakllantiradilar, jamoat binolari va turar joylarni ko'zdan kechiradilar. Tarbiyalanuvchilarning ota-onalari ekskursiyalar va maqsadli sayrlarni tayyorlashda yordam beradilar, sayr davomida bolalar guruhiga hamrohlik qiladilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sayr va ekskursiya mavzulari bo'yicha fotoko'rgazmalar, ochiq umumlashtiruvchi mashg'ulotlar va bo'sh vaqt tadbirlari tashkil etiladi, albomlar va maketlar yaratiladi.

Katta guruh bolalarini shahardagi asosiy obyektlar – maktab, muzey va kutubxona bilan tanishtirish muhim hisoblanadi. MTT umumta'lim maktablari bilan faol hamkorlik qilib, ular bilan qo'shma tadbirlar, maqsadli tashriflar hamda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekskursiyalar o'tkazadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhit haqida yaxlit tasavvur hosil qilish, bilish motivatsiyasini rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirish va shaxsiy madaniyat asoslarini shakllantirish uchun tarixiy, o'lkashunoslik va texnika muzeylari bilan yaqin aloqalar o'rnatish muhimdir. Muzeylarga tashrif buyurgan maktabgacha yoshdagi bolalar shahar va o'lkani eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha bo'lgan tarixi bilan tanishadilar.

Ekskursiya davomida bolalar muzey xodimlari tomonidan yaratilgan turli madaniy-ma'rifiy dasturlar bilan tanishadilar. Bu dasturlar tarbiyalanuvchilarning turli xil faoliyatlarini birlashtirishga qaratilgan bo'lib, uning rivojlanishining asosiy yo'nalishlari – bilish, badiiy-estetik va nutqiy yo'nalishlarni qamrab oladi. Xalq turmushi va madaniyatining asl buyumlari muzey dasturida bola va kattalarning yetakchi muloqot vositalari hisoblanadi. Dasturlardan tarbiyachilar o'zlari uchun zarur material va bolalar uchun ijodiy topshiriq sifatida foydalanishlari mumkin.

Har bir mashg'ulotni uch bosqich asosida quyidagicha tashkil etish mumkin: Tayyorlov bosqichi – bunda tarbiyachilar guruhdagi bolalar bilan tayyorgarlik ishlarini olib boradilar va bolalarni muzey sayohatida ishtirok etishga tayyorlaydilar; Axborot bosqichi – muzey xodimlari tomonidan rejalashtiriladigan va o'tkaziladigan muzey mashg'uloti; Refleksiv bosqich – tarbiyachi tomonidan guruhdagi bolalar bilan materialni mustahkamlash, dastlabki ikki bosqich jarayonida olingan qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni.

Oxirgi bosqich ushbu ishda juda muhim, chunki u bolaga olingan ijtimoiy tajribani qabul qilish va o'z hayotiga joriy etish imkonini beradi. Bu bosqichdagi asosiy shakllar suhbatlar, o'yin-sayohatlar, ko'ngilxushliklar, ekskursiyalar, viktorinalar, munozaralar hamda syujetli-rolli va didaktik o'yinlardir. Faoliyatning barcha shakllariga bolalarni mavzuga maksimal va har tomonlama sho'ng'itish usuli asos qilib olingan. Bolalar faoliyatiga katta ahamiyat beriladi: kollajlar, albomlar, bolalar kitobchalari va lug'atlar yaratiladi, ertaklar va hikoyalar to'qiladi, maketlar tayyorlanadi va hokazo.

Faoliyat jarayonida loyihalash usuli juda yaxshi samara berdi. Ijtimoiy soha obyektlari bilan tanishish davomida pedagoglar bolalar va ota-onalar bilan birgalikda turli xil loyihalarni ishlab chiqadilar: "Sog'lom turmush tarzining tarkibiy qismlari", "Bilmasvoyning bilimlar mamlakatiga kirishiga qanday yordam berish mumkin?", "Biz – o'zbekistonliklarmiz", "Kichik fuqaroning huquqlari", "Barcha kasblar kerak, barcha kasblar muhim", "Bizning bog'chamiz maketi", "Kelajak shahri" va boshqalar. Loyihalash metodidan foydalanish bolaga tajriba o'tkazish, xulosa chiqarish, ijodiy qobiliyat va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa unga keyinchalik maktab ta'limiga muvaffaqiyatli moslashish imkonini yaratadi.

O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash maqsadida, shuningdek, loyihani amalga oshirish jarayonida olingan bilimlarni taqdim etuvchi maxsus mashg'ulotlar, syujetli-rolli o'yinlar, ko'ngilochar tadbirlar, viktorinalar va boshqa tadbirlar tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim bosqichida bolalar faoliyatining yetakchi turi sifatida alohida rivojlantiruvchi muhit tashkil etilib, "Supermarket", "Reklama agentligi", "Teleboshlovchi", "Qishloq so'qmog'ida", "Biz yosh piyodalar" kabi syujetli-rolli o'yin-sayohatlar o'tkaziladi. Bunday o'yinlar bolalarga atrof-muhit haqidagi bilimlarni qiziqarli tarzda mustahkamlashga va ijtimoiy bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat ta'lim standartiga muvofiq rivojlantiruvchi muhit shunday loyihalashtirilishi kerakki, maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining o'yin, ijodiy va bilish faoliyatida kattalar faoliyatining shakllarini modellashtira va aks ettira olsinlar. Buning uchun ota-onalar bilan birgalikda bolalar bog'chasida ijtimoiy dunyoni miniatyura shaklida yaratishga, turli xil ijtimoiy sohalarni namoyon etishga harakat qilish kerak.

XULOSA

Bolalar bog'chasining har bir guruhida ota-onalar va bolalarning faol ishtirokida "Bizning jonajon o'lkamiz" mini-muzeyi tashkil etilib, unda bolalar yashaydigan shahar yoki qishloqni mashhur qilgan insonlar, o'lka tabiati haqida ma'rifiy va illyustrativ materiallar, fotoalbomlar, bolalar va oilaviy ishlar joylashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

MTTning jamoat tashkilotlari bilan ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish bola shaxsining ma'naviy rivojlanishi va boyishiga qo'shimcha turtki beradi. Farzandlarimiz yanada kirishimli, o'ziga ishongan, g'amxo'r, qiziquvchan,



e'tiborli, kattalar dunyosiga moslashishga deyarli tayyor bo'lib, jamiyat bilan muloqotda bir qaraganda kichik, ammo katta ijobiy amaliy tajribaga ega bo'lishini ta'minlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-595-son. – T.: 2019-y. <https://lex.uz/docs/-4646908>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti to'g'risida"gi 802-son qarori. – T.: 2020-y. <https://www.lex.uz/docs/-5179335>
3. Иванова Н. В., Бардинова Е. Ю., Калинина А. М. Социальное развитие детей в ДОУ: методическое пособие. – М.: ТЦ Сфера, 2008. – 128 с.
4. Каюмова Н. "Maktabgacha pedagogika": o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018-y.
5. Абдулхакимова Г. Т. (2024). ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДАЧИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА. Экономика и социум, (9 (124)), 420-426.
6. Абдулхакимова Г. Т. (2025). ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ. Экономика и социум, (3-1 (130)), 542-547.
7. Bekmuhammad U., & Sayyora S. (2024). XORAZMDAGI JADID MAKTABLARIGA OID TA'LIM TASHKILOTLARI VA JAMIYATLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 5(6), 25-31.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.